произношения не ограничивается лишь простым повторением. Целесообразно в таких случаях использовать наглядное объяснение – показать положение языка при произношении определенного звука. Следует стремиться к параллельной подаче и одновременной работе над звуками [о] – [у], [а] – [э], [и] – [ы]. При постановке произношения согласных звуков трудность вызывает произнесение мягких согласных. В данной ситуации работает своеобразный принцип «опоры» которой служит звук [и]: *ли – ми – ди – ти – ви – пи* и т.д, а также ряд согласных при отработке произношения [р]: *тарелка, дорога, ворота, трава, карандаши, коридор, хорошо, порядок* и др. Такие согласные перед звуком [р] обеспечивают опору для отталкивания языка и правильность постановки позиции. Трудность у иностранных слушателей вызывает различение согласных звуков по звонкости / глухости, что приводит к ошибкам типа: *[б]еремена (перемена), [б]а [б]ка (папка) и наоборот, гру [б]а (группа), м[унока] (много), [Б]е[г]ин (Пекин)* и др. При этом слушатели смешивают слова, которые в русском языке различаются только глухостью/звукостью одного или нескольких согласных: *дом – том, дочка – точка, душ – туши* и т.д.

На каждом занятии целесообразно проводить фонетическую «зарядку». Такая разминка включает упражнения на артикуляторную гимнастику, развитие фонематического слуха, отработку интонации. Здесь присутствует огромный выбор: от повторения за преподавателем отдельных звуков, слов, предложений до более сложных заданий – выделение на слух одного звука из текста. Для отработки определенного звука, можно подобрать такие рифмовки, в которых он наиболее часто встречается. Для освоения системы гласных фонем даются упражнения на разделение услышанного слова на слоги.

Существует множество фонетических упражнений, а задача преподавателя увидеть проблему и подобрать задания, которые помогут ее решить. Необходимо также обращать внимание и на интонацию, поскольку предложения в русском и родном языках могут звучать по-разному. Интонация зависит от типа предложения по цели высказывания. Для наглядности можно использовать таблицу, в которой указывается тип тона в том или ином предложении. Например, утвердительные предложения (*Да, это мой телефон*), конструкции, содержащие вопросительные слова (*Где книга?*), побуждение (*Откройте окно!*) произносятся с нисходящим тоном. Вопросительные предложения / общие вопросы произносятся с восходящим



тоном (*Это ваша подруга?*). Подобная классификация позволит слушателю понять, где необходимо повышать или понижать интонацию высказывания.

Для эффективного запоминания предлагаются различные упражнения на развитие и автоматизацию ритмоинтонационного навыка.

Таким образом, задача овладения русским языком не может быть успешно решена без знания его произносительных норм. И это особенно важно на первом, начальном этапе обучения. Правильное произношение способствует быстрому восприятию устной речи, облегчает процесс общения людей. Произношение иноязычного звука должно стать сознательной операцией, которая в дальнейшем становится автоматизированным навыком. Работа над интонацией, являясь важной частью работы над правильным произношением, облегчает и ускоряет процесс освоения языка, делает его более сознательным, дает хороший фонетический эффект.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бузанова Т.В. Роль и место фонетики в процессе обучения иностранцев русскому языку на начальном этапе. – Казань, 2004.
2. Киндря Н. А. Обучение вводно-фонетическому курсу с учетом особенностей русского языка и индивидуализации. // «Молодой ученый». 2015, № 22. – С. 805 – 808.
3. Костомаров В.Г., Митрофанова О.Д. Методическое руководство для преподавателей русского языка иностранцам. – М., 1988.
4. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М., 1976.
5. Сорокина Е.В. Коррекция слухо-произносительных навыков у иностранных учащихся. – М., 1997.
6. Туйчибаева Ш., Бахромбоева С. Особенности обучения китайских студентов русскому языку как иностранному. // Материалы международной научно-практической конференции «Узбекистан-Китай: развитие исторических, культурных, научных и экономических отношений» 19 ноября 2022 г. – Ташкент, 2022. – С. 170 – 174.
7. Туйчибаева, Ш. Ш., Бахромбоева, С. А. К. О., & КИТАЙСКИХ, С. ORIENSS. 2022.№ Special Issue 26. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-obucheniya-kitayskih-studentov-russkomu-yazyku-kak-inostrannomu> (дата обращения: 10.10. 2023).
8. Туйчибаева, Ш. Ш. (2023). ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И СРЕДСТВ НАГЛЯДНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. World scientific research journal, 13(1), 126-140.



9. Туйчибаева, Ш. Ш. (2023). ИЗ ОПЫТА ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ ИНОСТРАННЫХ СЛУШАТЕЛЕЙ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(21), 208-212.
10. Туйчибаева, Ш. Ш. (2022). Семантика фразеологических оборотов в русском и узбекском языках. *Хорезмской академии Маъмуна*, (6/3), 90.



INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BAHOLASHNING MEZON VA KO'RSATKICHLARI

Xalilova Jasmina Davron qizi
Toshkent moliya instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion muhit jozibadorligini baholashning mezon va ko'rsatkichlari, investitsion muhitni baholashning obyektivlik darajasini oshirish uchun zamonaviy iqtisod fani tomonidan ishlab chiqilgan bir qator muhim uslubiy qoidalar, xalqaro ko'rsatkichlar haqida hamda xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, investitsion muhit, investitsiya jozibadorlik, baholash ko'rsatkichlari, xorijiy kapital, huquqiy me'yor, BERI indeksi, iqtisodiy jozibadorlik, huquqiy jozibadorlik, investitsiyalash jarayoni risklari, baholashning obyektivlik darajasi.

Kirish

Hech qaysi mamlakat rivojlangan davlatlarning amaliyoti va nazariyasini o'rghanmasdan, jahon hamjamiyatidan ayri holda rivojlanmaydi. Shunday ekan, har bir davlat ishlab chiqarishni namunali tashkil etish, iqtisodiyotda yuqori ko'rsatkichlarga erishish, aholining ijtimoiy turmush darajasini oshirish uchun xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiqlir. Bu borada u yoki bu mamlakatdagi investitsion muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Qayerdaki qulay investitsion muhit mavjud bo'lsa, o'sha tomonga iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch – investitsiyalar oqimi tezlashadi.

Investitsion muhit muayyanligini bu borada faoliyatning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlarni umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillarning o'zaro bog'liq majmui u yoki bu mamlakat iqtisodiyotidagi hal qiluvchi investitsion muhit hisoblanadi. Demak, investitsion muhit haddan tashqari ko'p o'lchovli, murakkab va serma'no tushunchadir. Lo'ndasini aytganda, investitsion muhit – investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuini aks ettiruvchi voqe'likdir. Aniqrog'i, investitsion muhit – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuasidir.



Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsion muhitning modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to‘g‘risida aniq tushunchalarga ega bo‘lishi, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu jarayonlarning barchasi respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo‘lga qo‘yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada investitsion muhit jozibadorligini oshirish yo‘nalishlari bilan bog‘liq jarayonlarni baholashning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan bo‘lib, tadqiqot doirasida shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar hududlarda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili:

S.V.Zenchenko, M.A.Shemyotkin o‘z tadqiqotida investorlarning xohishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator omillarni ajratib ko‘rsatishadi. Xususan, mamlakat/hududning investitsion salohiyatini baholash uchun eng muhim omillardan quyidagilarni keltirishadi: resursli – xom ashyoviy (tabiiy resurslar asosiylar turlarining o‘rtacha o‘lchangan ta’minoti); ishlab chiqarish (hududdagi xo‘jaliklar faoliyatining umumiyligi); iste’mol (hudud aholisining xarid qilish qobiliyati); infratuzilmaviy (hududning iqtisodiy-geografik holati va uning infratuzilmaviy ta’minlanganligi); intellektual (aholining ma’lumot darajasi); institutsional (bozor iqtisodiyotiga asoslangan yetakchi institutlarning rivojlanganlik darajasi); innovatsion (hududda ilmiytexnika taraqqiyoti yutuqlarini tatbiq etish darajasi). Shuni ta’kidlash kerakki, investitsion salohiyat hududlarni tasniflash mezonlaridan biri hisoblanadi[1].

Iqtisodchi olimlarimizdan L.S.Zoyirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva, S.B.Yunusovalar “Bir vaqtning o‘zida, investitsiyalar samaradorligini aniqlash ularni safarbar etishning istiqbollarini bashoratlashda muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, iqtisodiyot bo‘yicha investitsiyalar taqsimotining to‘g‘ri yo‘nalishlarini aniqlab olishga imkon beradi” deya o‘z ilmiy ishlarida ta’kidlab o‘tishgan[2].

Investitsion muhit jozibadorligini aniqlash haqida B.S.Mamatov, D.Yu.Xujamkulov, O.Sh.Nurbekovlar quyidagicha izohlashadi: “Investitsiya muhitining holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshga shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari



belgilab beradi. Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobjiy va salbiy tomonlarini anglatadi. Investitsiya muhiti holati yaratilgan huquiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishini talab etadi”[3].

Investitsiya muhiti jozibadorlik ko'rsatkich va mezonlari qanchalik yaxshi darajada bo'lsa, investoring tadbirkorlik tavakkali shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi.

Tahlil va natijalar

Investitsion muhit tushunchasi o'zining murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikroiqtisodiyot darajasida ko'rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi. Makroiqtisodiyot darajasida yondashilganda, xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalarning shartlarini bajarish, xorijiy mulkni milliylashtirish, turli masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish, davlat boshqaruvin tizimlarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarligi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darjasи, iqtisodiy siyosatning mukammalligi, davlat apparatining ish samaradorligi, banklar tizimining takomillashuv darjasи, pul muomalasi va davlat byudjetining barqarorligi, davlatning ichki va tashqi qarzlari miqdori va boshqalar hal qiluvchi o'rin tutadi. Investitsion muhitga kapitalni qabul qiluvchi mamlakatning qonunlarida aks ettirilgan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar va xorijiy firmalarning faoliyatini chegaralovchi yoki taqiqlovchi omillardan tashqari, to'liq aniqlanmagan ba'zi bir qoidalar va muvofiqlashtirilmagan jarayonlarning mavjudligi salbiy ta'sir etadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsion muhit, bir tomonidan, investor firmasi va ikkinchi tomonidan, xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik subyektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtaqidagi ikkiyoqlama munosabatlarni aks ettiradi. Bu darajada investitsion iqlim umumlashtirilgan baholar iqtisodiy, huquqiy va madaniy jabhalarda yaqqol ko'rinadi. Makro va mikroiqtisodiyot darajalari birgalikda yagona investitsion muhitni tashkil etadi va potensial investorlar hamda kapitalni qabul qiluvchi tomonlarning bo'lajak munosabatlarini belgilab beradi.



Investitsion muhit obyekt kategoriyasi bo‘lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo‘lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin hozirgi sharoitda investitsion muhit faqat davlat organlarining ta’siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan, xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

Davlat hokimiyatining ta’sirchanligi investitsion muhitni belgilovchi omillardan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma’lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta’kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me’yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsion muhitni o‘z ichiga oladi. Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsion muhitning komponenti bo‘lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Chunki u investitsion muhitni o‘zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonni xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etsa, investitsion muhit kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o‘sib borish vaziyatiga baho beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan qishloq xo‘jaligidagi qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o‘zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobjiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo‘lgan investitsion muhitni yaratib berish kerak. Investitsion muhit iqtisodiyotda yangi tushuncha emas. Bir qator rivojlangan davlatlar bu jarayonni ijobjiy tarzda amalga oshirgan. Investitsion muhitning ahamiyati, amaliy jihatdan, qaysi boyliklar va yo‘nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat yuritishlari to‘g‘risida tushuncha beradi va shuning negizida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Investitsion muhitning muhim tarkibiy qismi davlatning qonunchilik bazasidir. O‘zbekistonda davlat mustaqilligi qaror topgan nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida investitsiya sohasida ishonchli me’oriy-huquqiy baza yaratildi.

Investitsion faoliyatning boshqarish va qo‘llab-quvvatlash tizimi ko‘p sonli qonunchilik-huquqiy hamda me’oriy hujjatlardan iborat va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qonunlar va mamlakat Prezidenti farmonlari; respublika hukumati qarorlari va dasturlari; ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishning kompleks va davlat



dasturlari; hukumatlararo shartnomalar va bitimlar; vazirlik va idoralarning nizomlari, yo‘riqnomalari, standartlari, qoidalari va hokazo; hududiy bo‘g‘inlar va xo‘jalik subyektlari doirasida amal qiladigan nizomlar va ustavlar.

Investitsiyalash borasidagi qo‘shma loyihamalar va qo‘shma korxonalarini tashkil etishdagi risklarni hisobga olishda ko‘pchilik xorijiy investorlar BERI indeksidan foydalananadilar. Ushbu indeks mamlakatdagi investitsion muhitni turlicha salmoqqa ega bo‘lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblab chiqadi. Har bir mezonga 0 dan (to‘g‘ri kelmaydi) 4 gacha (o‘ta qulay) baho beriladi. To‘plangan yuqori ball Ä “barqaror mamlakat”ni anglatadi. Mamlakat to‘plagan ball qanchalik yuqori bo’lsa, investitsiyalashdan olinishi mo‘ljallangan foyda ham shuncha yuqori bo‘lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. BERI indeksining umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

1-jadval

BERI indeksi ko’rsatkichlari[4].

№	Mezonlar	Mazmuni	Salmog‘i, foiz
1.	Siyosiy barqarorlik.	Kutilmagan hukumat to‘ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta’sirini baholaydi	12
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat.	Xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo‘lgan xarajatlar hajmi	6
3.	Milliylashtirish.	Beg‘araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan mahalliy hokimiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
4.	Devalvatsiya.	Devalvatsiya ta’siri hamda korxona faoliyatiga devalvatsiyaning ta’sirini yumshatuvchi choralarining hayotiyligi	6
5.	To‘lov balansi.	Hisoblar balansi va umumiy balansga, hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta’sir etuvchi omillar	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari.	Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi va boshqa shunday operatsiyalar	4



7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari.	Yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi 3 foiz, 3-6 foiz, 6-10 foiz va 10 foizdan yuqori chegaralarda	10
8.	Valyutaning konvertirlangani.	Milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashtirish imkoniyati, hamda milliy valyutaning (korxonalarga zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozoridagi o'rni	10
9.	Shartnomani amalga oshirish imkoniyati.	Shartnomaga <u>amal qilish imkoniyati</u> , hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar.	Ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi, ishga qabul qilish tartibi	8
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati.	Korxonalarga yuridik, buxgalteriya, marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar kutish imkoniyati	2
12.	Aloqa va transportni tashkil etish.	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkorlik.	Boshqaruvning turli masalalarini yechishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
14.	Qisqa muddatli kredit.	Xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital.	Hamkorlar tomonidan nizom kapitaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valyutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8



Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, investitsion muhitni baholashning obyektivlik darajasini oshirish uchun zamonaviy iqtisod fani tomonidan ishlab chiqilgan bir qator muhim uslubiy qoidalarni hisobga olish zarur. Ular quyidagilarni ko‘zda tutadi:

1. Barcha turdag'i investitsiyalar uchun ma'lum investitsion muhit zarur. Amalda kapital (sanoat, savdo, qarz, aksionerlik) investitsiya kabi turlicha bo'ladi, investorlar esa ustma-ust tushmaydigan maqsadlarni ko‘zlaydi. Qarz kapitali qisqa vaqt ichida maksimum foyda olishga qaratilgan bo'lib, moliyaviy investitsiyalar orqali, sanoat kapitali uzoq muddat davomida korxona faoliyatiga barqaror ta'sir o'tkazishga intilib, real, bevosita investitsiya orqali harakat qiladi.

2. Investitsion muhit manfaatlar muvozanatiga asoslangan bo'lishi kerak, chunki investitsiyalarni qabul qiluvchi ham, yetkazib beruvchi ham turlicha maqsadlarni ko‘zlaydi: ularning birinchisi minimum mablag'lar asosida maksimum maqsadlarni ko‘zlasa, ikkinchisi – maksimum foyda olish va mahalliy bozorlarni mumkin qadar tezroq egallashga intiladi.

3. Investitsion muhit, bir tomondan, uzoq vaqt barqaror, ikkinchi tomondan, yetarli darajada uddaburon tadbirkor, mamlakatda shakllanayotgan ijtimoiy ishlab chiqarish omillariga (ilmiy-texnikaviy, tadbirkorlik, boshqaruv, texnologik) nisbatan yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga ola biladigan bo'lishi darkor.

4. Investitsiyalar inson kapitali rivoji, barcha faoliyat sohalaridagi ishchi va xizmatchilarining malakasi yuksalishi bilan aniq bog'langan bo'lishi lozim.

5. Investitsion muhit xo'jalikning iqtisodiy barqarorligi va ishlab chiqarish tizimlari xavfsizligiga rahna solmasligi kerak.

6. Investorlarning va investitsiyalananayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim manfaatlari muvozanatini ta'minlash maqsadida, jalb qilinayotgan investitsiyalarning samaradorligi va investitsion muhit qulayligini majmuyligining baholash talab etiladi. Shu sababdan nafaqat jalb qilingan investitsiyalar hajmi, balki ularni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa oqibatlarini ham hisobga olish darkor.

Hududning investitsion jozibadorligini aniqlashning usul va vositalari keltirilgan bo'lib, foydalanilgan formulalar investitsiyalar jozibadorligini integral baholashga xizmat qiladi.

2-jadval

Investitsion jozibadorlikni aks etadigan ko‘rsatkichlar tizimi[5].

Guruh	Ko‘rsatkich
1. Iqtisodiy jozibadorlik	Makroiqtisodiy barqarorlik (mb) Mehnat bozorining samaradorligi (mbs)



	Infratuzilmalarning sifati (is) Instutlarning sifat darajasi (isd) Ichki bozorning imkoniyati/hajmi (ibh) Texnologiyalarning rivojlanish darajasi (trd) Innovatsion salohiyat (is)
2. Huquqiy jozibadorlik	Huquqiy nuqtai nazaridan biznes qilish uchun yaratilgan qulay sharoitlar
3. Investitsiyalash jarayonida risklar	Demografik bosimning darajasi (dbd) Olib borilayotgan siyosatdan va hayotdan norozi bo‘lgan aholining qatlami (nb) Davlat tuzilmalarida avj olgan korrupsiya holati (dtk) Inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lish darajasi (ihepb) Yuqori boshqaruv guruhlarining ta’sir ko‘rsatish darajasi (ybog) Davlat xavfsizlik organlarining ta’sir ko‘rsatish darajasi (dxot) Boshqa davlat/hududlarning ta’sir ko‘rsatish darajasi (bt)

Butunjahon iqtisodiy forumi iqtisodiy jozibadorlikni aniqlashda quyidagi formuladan foydalanadi:

$$\text{IJ}=\text{mb}+\text{mbs}+\text{is}+\text{isd}+\text{ibh}+\text{trd}+\text{is} \quad (1.1)$$

IJ – «Iqtisodiy jozibadorlik» bo‘yicha davlatga berilgan ball. Huquqiy jozibadorlikni aniqlashda «biznesni yuritish» reytingidan foydalaniladi.

$$\text{HJ}=1/\text{DB} \quad (1.2)$$

Bu yerda: HJ – huquqiy jozibadorlik;

DB – «Doing business»da davlatning reytingi.

$$\text{Risk}=1/\text{dbd}+\text{nb}+\text{dtk}+\text{ihepb}+\text{ybog}+\text{dxot}+\text{bt} \quad (1.3)$$

Bu yerda, risk – investitsiyalash jarayonida riskning mavjudlikdarajasi: ko‘rsatkich qiymati qanchalik katta bo‘lsa, kapital qo‘yilmalarni joylashtirishda risk darajasi shunchalik kichik bo‘ladi. Navbatdagi loyiha – Tinchlik uchun jamg‘armasi (The Fund for Peace) tomonidan 12 ta tamoyil asosida uchta guruhga (iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy) bo‘lgan holda, investitsion muhitni anglatuvchi davlatning faoliyatsizlik indeksidir[6]. Ijtimoiy guruhga: demografik bosim darajasi, migrasiya



darajasi, hayotdan norozi bo‘lganlar soni, davlatdan chiqib ketgan emigrantlar; iqtisodiy guruhga: iqtisodiy o‘sishning nomutanosibligi, iqtisodiy beqarorlik darajasi; siyosiy guruhga – davlat tuzilmalarining kriminalga aloqadorligi, jamoat tashkilotlari xizmatining sifati, inson manfaatlari va qonunlarning poymol bo‘layotganligi, turli guruh va urug‘larning ta’sir doirasi, boshqa davlatlarning mamlakatning ichki ishlariga aralashuvi kabi omillar inobatga olinadi.

Xulosa

Jahonda yuz berayotgan tendensiyalar tahlili natijalariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarning barchasida qishloq xo‘jaligi qaysidir ma’noda davlat tomonidan rag‘batlantiriladi va ularga har yili davlat budgetidan subvensiya/dotatsiyalar ajratiladi. Qishloq xo‘jaligi sohasining boshqa sohalarga qaraganda investitsion jozibadorligining pastligi tufayli ham investorlar ko‘pincha o‘z mablag‘larini yuqori daromad keltiradigan sohaga yo‘naltirishga harakat qilishadi.

Investitsiyalarni yo‘naltirishda asosiy jihatlardan biri sifatida hududning investitsion jozibadorligini inobatga olish, shunga muvofiq ravishda oqilona qaror qabul qilish ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishning birlamchi shartidir. Uzoq muddatli oraliqda agrar sohaga ixtisoslashib qolgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minalash borasida quyidagi yo‘nalishlarga ustuvor e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi: sanoat ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, tarkibiy islohotlarni kuchaytirish va YaHMda industrial sektor darajasi ulushini oshirish; qayta ishlab chiqarishni intensivlashtirish maqsadida qishloq xo‘jaligi bilan sanoat sohasi o‘rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish; hududda mavjud bo‘lgan tabiiy-mahalliy xom ashyo resurslarining turi, hajmidan kelib chiqib ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish; hududlarning imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqib yuqori darajadagi ixtisoslashuvni ta’minalash, kuchaytirish va mavjud tajribani O‘zbekistonning boshqa hududlariga yoyilishini ta’minalash; mehnat bozoridagi vaziyatni barqarorlashtirish, ayniqla, qishloq mehnat bozoridagi vaziyatni muvozanatlashtirish, hududiy mehnat bozorida vujudga kelgan tafovutni (disproporsiya) oldini olish maqsadida yuqori mehnat talab qiladigan ishlab chiqarish koplekslarini yo‘lga qo‘yish; hududlarda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta’minalash maqsadida ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanishini ta’minalash; mahalliy ishlab chiqarish va iqtisodiyotni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalash jarayonlarini tezlashtirish; hududlarda yaratiladigan yalpi hududiy mahsulotlarni o‘rtacha umumrespublika ko‘rsatkichidan pasayib



ketishining oldini olishda turli xildagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зенченко С. В., Шемёткина М. А. «Инвестиционный потенциал региона». Сборник научных трудов СевКавГТУ. Серия «Экономика». 2007. №6.
2. Investitsiya: Darslik / L.S.Zoirov, Sh.Sh.Asamxodjayeva, S.B.Yunusova; - Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 652 б.
3. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. B.S.Mamatov, D.Yu.Xujamkulov, O.Sh.Nurbekov. Darslik. Т.: Iqtisod-Moliya. 2014. 608 bet.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. О‘quv qo‘llanma. – Т.: «Moliya», 2010. – Б. 120.
5. Schwab K. World Economic Forum: The Global Competitiveness Report. Geneva: World Economic Forum, 2013.
6. The Failed States Index Rankings. URL: <http://ffp.statesindex.org/> rankings.



QORAQALPOQ XALQ SHOIRI VA MARD O'G'LONI BERDAQNING BIZGA QOLDIRGAN SHE'RIAT MEROSI

Калбаева Арухан Женгисбаевна
Тошкент Педиатрия Тиббиёт Институт
4 курс
433-1 педиатрия

ANNOTATSIYA

Qoraqalpoq klassik adabiyotining namoyondasi deb nom olgan Berdaqning hayoti-ijodi jarayonini o‘rganish ta’lim muassasalarida qay darajada ekanligi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar: *Berdaq hayoti va ijodi, adabiy meroslari, qo‘lyozmalari.*

KIRISH

Men turli sinov va kurashlarda toblangan, iymon-irodasi mustahkam xalqimizning aql-zakovati va azmu shijoatiga ishonaman. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev Dunyoda ilm-fan taraqqiy etmagan hech bir o`lkada erkin va farovon jamiyat qurib bo‘lmasligini hayotning o‘zi takror-takror isbotlagan. Hozirgi zamonda o`tmish va kelajakni bir-biriga bog‘lovchi zanjir yoshlarning intellektual salohiyati bilan ekanligi adiblarimiz asarlarida takidlab aytilib kelingan. Qoraqalpoq diyori o‘zining dunyoda o‘xshashi yo‘q, betakror, boy va yuksak san’ati bilan barchamizni hayratga solib kelgan. Qoraqalpoq adabiyotining o‘z yo‘nalishi, uslubi va fikriga ega xalq shoiri Berdaq haqida so‘z ketganda Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li XIX asrning birinchi choragida 1827 yil 9 noyabrda Qoraqalpoq Qo‘ng‘irot beyligiga qarashli Amudaryo Orol dengizining Quyliko‘l ovulida dehqon oilasida tug‘ilgan. Berdaq o‘z davrining ziyoli, o‘ziga xos teran fikrli, o‘z zamandoshlaridan ko`ra angicha fikrli va yuksak mavqega ega shaxs bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Boshlang‘ich ta’limni avval ovul maktabida, so‘ngra esa madrasada tahsil ko‘rgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo‘ja asarlarini chukur mutola qilgan, ulardan o‘rgangan. U tarixni va xalq, og‘zaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaqning lirik she’rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining XVII-XIV asrlardagi ijtimoiy hasti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi.



Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Berdaq ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzulari “Bo‘lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrin” va boshqalar. Shoир haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchuy fidokor kurashchilarni orzu qilgan. O‘zining sherlarida “Xalq uchun”, “Menga kerak” va boshqa mavzularda ko`plab bitiklarni yozib kuya solgan. Tarixiy mavzudagi “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Azadosbiy”, “Ernazarbiy” asarlarida shoир xalq qaxramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdoqning “Avlodlar” asari tarixiy voqealar solnomasi bo`lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fikrlari bayon qilinadi. Berdaq ba’zi ta’magir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etib “Yaxshiroq”, “Shekilli” kabi sherlarida va boshqa asarlarida yozadi. Ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallashga chaqiradi o‘zining “O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma” va boshqalar sherlarida ham ko`plab pand nasixatli tarizda muammolarni yoritadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

She’riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qildi. Xalqni baxtli qilish haqida o‘ylar ekan, Allohdan madad so‘rab quydagi “Yordam ber” sheri orqali, baxt haqida fikr yuritadi. “Izladim” sheri orqali esa odil podshoni orzu qiladi “Kerak” sheri bilan baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi. Berdaq ijodi xalq og`zaki adabiyoti an’analalariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g‘oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi.

Uning ko`pgina asarlari o‘zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan. O’tgan yillar mobaynida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi (1998). Shoир tug‘ilgan joy — Bo‘zatovda ham xaykali o‘rnatilgan 1998 yil. Nukus shahrida Berdaqga haykal qo‘yilgan, musiqali drama teatri, ko‘cha va maktabga Berdaq nomi berilgan. Berdaq shoirlilik, baxshichilik, sozandalikda tengi yo‘q, is’tedodli shaxslardan hisoblangan. Zamonasining taniqli va barchaning hurmadiga sazovor bo‘lgan, elardog‘idagi shoир bo‘lgan. Berdaq yoshligidanoq ilmga chanqoq, ziyrak, bola edi. Berdaq islomning muqaddas kitobi bo‘lgan Qur’oni Karimni va dunyo tarixi va adabiyotini o‘rgangan.

Shoirning ilmga bo‘lgan mehri va chanqoqligini hozirgi zamon yosh avlodlariga o‘rnak qilib ko‘rsatsek arziydi. Qoraqalpoq klassik adabiyotining buyk shoiri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘lining boy va mazmunli ijod namunalarini bizgacha yetib kelgan sherlaridan bir olam mano olish mumkin. Misol tariqasida o‘sha



zamonning ilim yo‘lidagi mashaqqatlarini qiyinchiliklarini quydagi misra orqali ko’rib chiqsak:

Zamon qanday zamon bo‘ldi
Qarag‘ay boshin sho‘rtan chaldi.
Bir nechisidan ko‘nglim qoldi.
Yorug‘ yo‘lni izlar bo‘ldim.

Bu misralarda shoir o‘z xalqining orzu armonini ifoda etishga, o‘sha davrning nohaqliklarini va ilim yo‘lidagi mashaqqatlarni yoritishga harakat qilib sher orqali ifoda etgan. Berdaq o‘zning sherlarini qo‘sish qilib kuylab qo’shiqlarida xalqni o‘z haqini talab etishga, ozodlik harakatlariga undagan. Berdaqning barcha ijod namunalarida xalqning turmush sharoiti, o‘sha zamonning ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Shoir o‘z asarlarida xalq boshidagi og‘ir ahvol, kambag‘allik, haqidagi qo’shiqlari bilan xalqqa taskin berishga harakat qilgan. Manashu qo’shiqqa aylangan sheridan to‘rt misrani misol sifatida qarasak.

Berdaqning hayot yo‘li va ijodi haqida qancha ko‘p so‘zlasakda oz. Shuning uchun yoshlarimiz o‘rtasida Berdoqning ijodini keng targ‘ib qilish va asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va yosh avlodga yoshlarimizga xalqimizga ommaga tanishtirish lozim. Mashhur adabiyot va san’at arbobi xalq shoirining porloq xotirasi hurmatiga Nukus va boshqa shaharlar kuchalariga, bog‘ hiyobonlarga, kinoteatrлarga Berdoqning nomi berilgan. Mamlakatimizdagи nufuzli teatrлardan biri Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri nafaqat o‘simizda balkim chet ellarda ham mashhur. Berdoq xalqning o‘tli dardiga malham bo‘luvchi harorat bag‘ishlash barobarida, kitobxonga hassos shoir dard-alamlaridan xabar yetkazishga qodir bo‘lgan buyuk xalq kuychisidir. Buni yaxshi anglagan shoir o‘z sherlaridagi kechinmalar mohiyatiga ishora qilish orqali kitobxoni bilim olish uchun diqqatini qaratish kerak bo‘lgan nutalarga alohida urg‘u berib asarlar sherlar yozgan.

Albatta, yuqoridagi kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ammo gap ularnin soni emas, balki salmog‘ida ekanligini ta’kidlash lozim. Umuman, Berdoq she‘riyati adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Binobarin, uning ibratli hayoti, sheriyati va asarlaridagi ma’naviy merosi bugungi kunda yoshlar qalbida yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirishda, barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Agar biz ajdodlarimiz boy tarixiy ma’naviy merosini o‘rgansak turli xil xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qati’yat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham kirib kelishi mumkin. Buning uchun adiblarimiz ijodlaridan Berdoq hayoti va ijodidagi sherlari yoshlarimizni o‘zining sherlari dostonlaridagi bunyodkorlik ilimga intilish xalqga xizmat qilish g‘oyalari



bilan o‘zining girdobiga tortib ketishi uchun qaraqolpoq tilidan boshqa tillarga ham tarjima qilsak ko‘p tilli xalqimiz yoshlari o‘qib o‘rganishadi. Berdoq sherlarida ota-on, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas‘uliyati hamda vatanparvarlik kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Yoshlarni bugungi internet xurijidan asrash uchun Berdoq kabi xalqparvar fidoiy adiblarning asralarini sherlarni turli tillardagi badiy kitoblarni ona tilimiz bo‘lgan o‘zbek tiliga tarjima qilish kerak. Yoshlarni faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudbin kimsalarga aylanib qolishini oldini olish maqsadida adabiyot, san’at, sport bilan band qilish kerak.

XULOSA

Xulosa o‘rnida Qoraqalpoq xalqining serqira ijodkorlaridan biri Berdaq ijodi va hayot yo‘lini chuqur o‘rganib barcha insoniy fazilatlarni yanada mustahkamlashimiz, Toshkent pediatriya tibbiyat institutining talaba yoshlari o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlarini yanada jonlantirish lozim. Berdoq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda inovatsiyalardan keng foydalanib Berdoqning sherlarini zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtrilgan qisqa video lavxalari tayyorlab borilmoqda hamda kino filimlar yaratish orqali ijodkorning faoliyatini Toshkent pediatriya tibbiyat institutida keng ommaga tanshtrish ishlari davom etmoqda. O‘ylaymizkiy ijodkorning barcha sherlari dostonlari doimo xalqimizning yuragidan joy olib kelmoqda, zamonlar osha bizning targ‘ibotlarimiz davomiyligini Berdaq asarlari o‘zida saqlanib qoladi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020.
2. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. Sh.M.Mirziyoyev.
3. B.Qurbanboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti. T., 1986
4. Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik qo‘llanma.



ZAMONAVIY TIBBIYOTDA BOLALARD A NEMIYAGA O'Z VAQTIDA YONDASHISH XUSUSIYATLARI.

*Narzullaeva Mehrangiz Azizzonovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Farmatsevtika ishini tashkil qilish
kafedrasi assistenti*

Annotatsiya

Anemiya hozirda keng tarqalgan kasallikdir. Ichki muammolar va jiddiy kasalliklar har doim yetishmovchilikning rivojlanishiga sabab bo'lmaydi. Atrof-muhit, noto'g'ri ovqatlanish, yomon odatlar - bularning barchasi qon tarkibiga ta'sir qiladi. O'zingizni o'zboshimchalik bilan davolamang! Agar shifokorga o'z vaqtida murojaat qilsangiz, tana uchun jiddiy oqibatlarni oldini olishingiz mumkin.

Alovida-alohida, ayollarga eslatmoqchimanki, qonda yetarli miqdorda temir bo'lmasa, jilvakor sochlar, uzun tirnoqlar va sog'lom teri bo'lmaydi. Anemiya sabablari, belgilari va davolash usullarini aniqlashga zamonaviy yondashuvga ega ishonchli klinikalarni tanlang.

Kalit so'zlar. Anemiya, gemoglobin, ferritin, transferrin, antinatal, intranatal

Аннотация

Анемия - коварное заболевание. Внутренние проблемы и серьезные недуги не всегда становятся причиной развития дефицита. Окружающая среда, неправильное питание, вредные привычки - все это влияет на состав крови. Не занимайтесь самолечением! Если своевременно обратиться к врачу, можно избежать серьезных последствий для организма. Отдельно хотелось бы напомнить женщинам, что без достаточного количества железа в крови не будет роскошных блестящих волос, длинных ногтей и здоровой кожи. Выбирайте надежные клиники с современным подходом к выявлению причин, симптомов и лечению анемии.

Ключевые слова. Анемия гемоглобин, ферритин, антинатал, интранатал

Annotation

Anemia is an insidious disease. Internal problems and serious illnesses do not always cause the development of deficiency. The environment, poor nutrition, bad habits - all this affects the composition of the blood. Don't self-medicate! If you consult a doctor in a timely manner, you can avoid serious consequences for the body. Separately, I would like to remind women that without a sufficient amount of



iron in the blood there will be no luxurious shiny hair, long nails and healthy skin. Choose trusted clinics with a modern approach to identifying the causes, symptoms and treatment of anemia.

Key words: Anemia, hemoglobin, ferritin, transferrin, antenatal, intranatal.

Muammoning dolzarbligi. Bolalarda anemiya rivojlanishiga ko'mak beradigan bir qator omillar mavjud. Antenatal omillar homila rivojlanishining butun davri davomida ta'sir qiladi. Homiladorlik davrida normal gematopoez uchun homila tanasi yetarli miqdorda temirni olishi va to'plashi kerak (o'rtacha miqdori 300 mg). Onadan temirning eng faol o'tishi va uning bolaning tanasida to'planishi 28-32 xافتада sodir bo'ladi. Agar bu davrda homiladorlik to'g'ri rivojlanmasa, temir almashinushi buziladi va uning zaxiralari xomilada etarli darajada to'planmaydi. Agar ayol homiladorlik paytida temir tanqisligi bilan og'rigan bo'lsa, bolalarda anemiya ko'pincha paydo bo'ladi. Intrapartum omillar ko'p hollarda tug'ruq paytida katta qon yo'qotish bilan bog'liq.

Bu platsentaning ajralishi, kindik ichakchasining o'z vaqtida bog'lanmaganligi yoki tug'ruq paytida ayolga shikast yetkazishi mumkin bo'lgan akusherlik vositalaridan foydalanganda sodir bo'ladi. Erta tug'ilish ham hayotning uchinchi oyidan boshlab bolalarda kamqonlikning rivojlanishiga yordam beradi. Postnatal omillar tug'ilgandan so'ng darhol temir tanqisligi anemiyasining rivojlanishiga yordam beradi. Ular ekzogen va endogen bo'lishi mumkin. Endogen anemiya ma'lum sharoitlar bilan qo'zg'atiladi: yangi tug'ilgan chaqaloqning gemolitik kasalligi, suyak iligi etishmovchiligi, anormal gemoglobin sintezi.

Bolalarda anemiya boshqa bir qator sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin: muntazam qon yo'qotish, masalan, gemitopoetik organlarning kasalliklari tufayli; vitamin etishmasligi; oziqlanish sabablari, ona sutida temir etarli bo'limganda; temirning so'riliishi va metabolizmining buzilishi.

Bundan tashqari, gemoglobinning etarli emasligi toza havoda kamdan-kam yurish, zaharlanish, radiatsiya ta'siri, jismoniy harakatsizlik, infektsiyalar va bolaning tez o'sishi bilan ta'sir qiladi. Bolalarda kamqonlikning rivojlanishi faol o'sish, eritropoezning intensiv jarayoni, hosil bo'lgan elementlarning soni va aylanma qon hajmining ko'payishi bilan bog'liq. Biroq, bolalardagi gemitopoetik apparat hali ham yetuk emas va turli xil salbiy ta'sirlarga juda zaif.

Sog'lom gemitopoetik tizim temir, oqsil, vitaminlar va boshqa foydali komponentlarning ma'lum bir zaxirasini talab qiladi, shuning uchun ovqatlanishdag'i eng kichik xatolik, turli xil infektsiyalar va organizmga toksik ta'sirlar chaqaloqda



anemiya rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Olti oydan keyin neonatal foydali komponentlarning zaxiralari asta-sekin tugaydigan bolalar temir tanqisligiga ayniqsa sezgir. To'g'ri davolanmagan bolalarda uzoq muddatli anemiya gipoksiya, organlar va to'qimalarda o'zgarishlar bilan birga keladi. Anemiya bilan og'rigan bola jismoniy va aqliy rivojlanishida tengdoshlaridan orqada qoladi, ko'pincha infektsiyalardan aziyat chekadi va kasalliklardan keyin patologik jarayonlar va asoratlarni rivojlanishiga moyil.

Tashxis choralari laboratoriya qon testlariga asoslanadi. Klinik tahlil gemoglobin darajasining pasayishini aniq ko'rsatadi. Biokimoviy qon tekshiruvi qon zardobidagi temir darajasini, transferrinning temir bilan to'yinganlik darajasini, qon zardobidagi konsentratsiyasini, shuningdek bilirubin va vitaminlar miqdorini aniqlaydi. Bolada anemianing murakkab holatlarida mutaxassislar keyingi tadqiqotlar uchun suyak iligi ponksiyonini amalga oshiradilar. Diagnostika jarayonida shifokorlar qizil qon tanachalari va gemoglobin tarkibini hisobga olgan holda patologiyaning og'irligini aniqlaydilar. Ba'zi bolalar qo'shimcha tekshiruvga muhtoj. Davolovchi shifokor qorin bo'shlig'i va buyraklarning ultratovush tekshiruvini, shuningdek, ezofagogastroduodenoskopiyani buyurishi mumkin. Tor mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar ko'rsatiladi - gastroenterolog, ginekolog, nefrolog. Tekshiruv natijalariga ko'ra anemiyani davolash bo'yicha klinik tavsiyalar beriladi.

Bolalarda anemiya rivojlanishiga yordam beruvchi omillar antenatal, intranatal va postnatalga bo'linadi.

Intrauterin rivojlanish jarayonida antenatal omillar ta'sir qiladi. Homiladorlik davrida bolada gematopoezning normal kechishi uchun uning tanasi onadan olishi va etarli miqdorda temir (taxminan 300 mg) to'plashi kerak.

Homilador ayoldan temirning eng qizg'in o'tkazilishi va uning homilada to'planishi homiladorlikning 28-32 xaf taligida sodir bo'ladi. Ushbu davrda homiladorlikning normal kechishini buzish (gestosis, fetoplental etishmovchilik, homiladorlik xavfi, platsentaning erta ajralishi, qon ketishi, onaning yuqumli kasalliklari, surunkali jarayonlarning kuchayishi) temir almashinuvining buzilishiga va uning bolada etarli darajada to'planishiga olib keladi. tanasi. Bolalarda kamqonlik, agar ayol homiladorlik paytida ham kamqonlik bilan og'rigan bo'lsa, paydo bo'ladi. Ko'p homiladorlik yangi tug'ilgan chaqaloqlarda anemiya rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalarda anemianing intrapartum omillari asosan tug'ruq paytida qon yo'qotish bilan bog'liq. Qon yo'qotish tug'ruq vaqtida platsentaning muddatidan oldin



ajralishi, kindik ichakchasining erta yoki kech bog'lanishi, to'g'ri ishlov berilmaganda kindik ichakchasi dagi qon ketishi yoki travmatik akusherlik vositalarini qo'llashda mumkin. Erta tug'ilish tug'ilishdan boshlab yoki hayotning taxminan 3-oyidan boshlab barcha erta tug'ilgan chaqaloqlarda anemiya aniqlanishiga olib keladi.

Bolalarda anemianing postnatal omillari tug'ilgandan keyin boshlanadi va endogen yoki ekzogen bo'lishi mumkin. Bolalardagi endogen anemianing sabablari yangi tug'ilgan chaqaloqning gemolitik kasalligi, g'ayritabiiy gemoglobin sintezi va suyak iligining birlamchi konstitutsiyaviy etishmovchiligi tufayli qizil qon hujayralariga zarar etkazishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Классификация и диагностика анемий у детей/ Румянцев А.Г// Вопросы современной педиатрии. - 2011. - Т.10, №1.
2. Базарова Н. С., Зиядуллаев Ш. Х. Современные аспекты полиморфных генов матриксной металлопротеиназ и ее тканевых ингибиторов у детей с хроническим гломерулонефритом и прогноз заболевания //журнал гепатогастроэнтерологических исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 1.
3. Бозорова, Н. ., Анорбаева , Ш., & Назарова, . Л. . (2023). значение поддорожника в народной медицине. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(10), 5–6. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/11475>
4. Нарзуллаева М. А. ОСОБЕННОСТИ СВОЕВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К АНЕМИЯМ У ДЕТЕЙ //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 105-108.
5. Нарзуллаева М. А., Туйчиев Н. Х. РАСПОСТРАНЁННОСТЬ ОБЛЕПИХИ В ЗАРАФШАНСКОЙ ДОЛИНЕ //Горизонты биофармацевтики. – 2023. – С. 165-167.
6. Azizzonovna N. M. GULXAYRI OSIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 769-772.
7. Нарзуллаева М. А. АЛТЕЙ И ЕГО ПОЛЕЗНЫЕ СВОЙСТВА В МЕДИЦИНЕ //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 91-94.
8. Nabieva F. S., Narzullayeva M. A., Bo'Riyev M. G. YUQUMLI KASALLIKLARNI TASHXISLASHDA IMMUNOFERMENT TAHLILINING AHAMIYATI //Research Focus. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 161-164.



9. Azizkhonovna N. M., Madullaevich I. O. Uses of sea buckthorn and its beneficial properties in medicine //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 57-59.
10. Azizkhonovna N. M. et al. ALTHAEA ARMENIACA TEN AND ITS USEFUL PROPERTIES IN MEDICINE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 256-259.
11. Sobirjonovna B. N. et al. CHAKANDA O'SIMLIGIGA ZAMONAVIY QARASHLAR //journal of innovations in scientific and educational research. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 209-211.
12. Нарзуллаева М. и др. ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ ОБЛЕПИХА И ЕГО ПОЛЕЗНЫЕ СВОЙСТВА В МЕДИЦИНЕ //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 68-70.
13. Mavsumova O. MEDICINAL PROPERTIES OF SEA BUCKTHORN (Hippophae Rhamnoides L.) OIL PLANT //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 1-3.
14. Sadriddinovna A. S., Gulyamovna A. M. The relevance of the meaning of plantain in folk medicine //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 49-50.
15. Gulyamovna A. M., Sadriddinovna A. S. Hypotensive properties of the plant salvia submutica //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 51-52.
16. Базарова Н. С., Зиядуллаев Ш. Х. Современные аспекты полиморфных генов матриксной металлопротеиназ и ее тканевых ингибиторов у детей с хроническим гломерулонефритом и прогноз заболевания //журнал гепатогастроэнтерологических исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 1.
17. Бозорова, Н. ., Аюробаева , Ш., & Назарова, . Л. . (2023). значение подорожника в народной медицине. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(10), 5–6.
18. Nuridinovna S. K., Sobirzhonovna B. N., Batirbekovna A. N. Heart Damage and Arrhythmias in Children After Coronavirus Infection: Early and Remote Observations //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 18. – С. 61-64
19. Sobirjonovna B. N. et al. ZUBTURUM O'SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 215-216.



20. Ахмедов Б., Буриев З. ДОРИВОР АНОР (PUNICA GRANATUM L.) ЭКСПЛАНТАРИНИ ТАНЛАШ ВА СТЕРИЛИЗАЦИЯ ҚИЛИШ // Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 131-134.
21. Akhmedov B., Buriev Z. SELECTION AND STERILIZATION OF MEDICINAL POMEGRANATE (PUNICA GRANATUM L.) EXPLANTS // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 106-108.
22. Алтыбоева М. Г., Бозорова Н. С. СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА КИШЕЧНУЮ МИКРОФЛОРУ У ДЕТЕЙ // Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 109-112.
23. G'ulomovna O. M., Sobirjonovna B. N. MODERN VIEWS ON INTESTINAL MICROFLORA IN CHILDREN // Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 279-282



BOLALARDA NEFRITIK SINDROM HAQIDA ZAMONAVIY QARASHLAR

Bazarova Nigina Sobirjonovna

*Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasи assistenti
Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

Annotatsiya

Surunkali nefritik sindrom - bu bir necha kasalliklarda yuzaga keladigan holat bo'lib, unda glomerulalar shikastlanadi va bir necha yil davomida buyraklar faoliyati yomonlashadi.

Sindrom ko'p yillar davomida o'zini namoyon qilmaganligi sababli, ko'p hollarda uning rivojlanishi e'tiborga olinmaydi. Sindrom asta-sekin rivojlanadi, shuning uchun shifokor odatda kasallikning qachon boshlanganini aniq ayta olmaydi. Sindrom o'zini yaxshi his qiladigan va siydikda oqsil va ba'zan qon hujayralari mavjudligidan tashqari kasallik belgilari bo'limgan odamni muntazam ravishda fizik tekshiruvdan o'tkazishda aniqlanishi mumkin.

Kalit so'zlar: gipertoniya, proteinuriya, makrogematuriya, mikrogematuriya, glomerulonefrit.

Kirish. Surunkali nefritik sindrom mikro/makrogematuriya, kam miqdorda proteinuriya (kuniga 1 g gacha), shish va gipertenziya bilan tavsiflanadi. Bu birlamchi va ikkilamchi glomerulonefritning katta guruhidir. Nefritik sindrom - har qanday yoshda yuzaga keladigan glomerulyar yallig'lanishning (glomerulonefrit) namoyon bo'lishi; uning sabablari yoshga bog'liq bo'lsa, mexanizmlari esa sababga bog'liq.

Epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra, bolalar orasida glomerulonefritning tarqalishi 100 000 bolaga 7-20,5nafarni tashkil qiladi. Kattalardagi buyrak kasalliklari tarkibida surunkali glomerulonefrit bolalikda orttirilgan bo'lib katta foizini tashkil qiladi. Nefritik sindrom bolalarda buyrak kasalliklarining og'ir sindromlaridan biri bo'lib, asoratlar va nogironlikning rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu esa keyinchalik yuqori moliyaviy xarajatlarga, gemodializ va buyrak transplantatsiyasiga olib keladi.

So'nggi o'n yil ichida kasallikning tarqalishi sezilarli o'sishni ko'rsatdi va bu nefrologik patologiya tarkibida 36,76% ni tashkil etdi. Nefrologiya bo'limiga yotqizilgan bolalarda buyrak kasalliklari tarkibida glomerulonefrit ikkinchi o'rinda



Mualliflar tomonidan taklif etilayotgan innovatsion metod "SIKL" metodi bo'lib, dars jarayonida mavzuni tushuntirishda o'qituvchi bilan birgalikda o'quvchilarni ishlashga, ijod qilishda undaydi, Ushbu maqolamda "SIKL" metodini bug'lanish va kondensatsiyalanish hodisalarga qiyoslangan oddiy holda tabiatda turmushimizda uchraydigan hodisalarga bog'langan holda tushuntirmoqchiman. Bu metodni darsni tushuntirib bo'lganimizdan keyin o'quvchilarining dars mavzusini esdan chiqarmaslik uchun qo'llashimiz maqsadga muvofiq bo'lardi.

"SIKL" metodini amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlardan foydalanamiz.

Birinchi bosqich. Quyosh nurlari . Ushbu bosqichni biz ♦ quyosh nurlariga qiyoslagan holda bosib o'tamiz. O'qituvchi dars boshlashdan oldin sinf xonasini ko'zdan kechiradi va darsni boshlaydi. Dars boshida mavzu bo'yicha barcha ma'lumotlarni kompyuter texnikasidan va ko'rgazmali qurollardan foydalanib o'tilgan darslarda yangi bilimlar berilgan bo'ladi va o'quvchilar yangi mavzu



tushunchaga ega. Bu esa "SIKL" metodida o'qituvchi tomonidan berilgan yangi bilimlar kabi sof musaffo, tiniqligi bilan, o'qituvchining o'zi quyosh ✨ kabi o'zining ziyo nurlarini taratadi. Bu nurlar yer yuziga, ya'ni tabiatga yetib keladi. Bu yerda o'qituvchi tomonidan berilgan yangi bilimlar quyosh ✨, tabiat esa o'quvchilardir.

Ikkinchi bosqichi. Bug'lanish.. Biz bilamizki ona tabiat musaffo go'zalligi bilan hammani o'ziga ohangraboday tortadi, yosh bola qalbidek beg'ubor va tiniq unga tushgan ✨ quyosh nurlari misolida tasvirladik va u bergen bilimlarni ko'rakmaldhtiradi va gzalla turadi. Tabiatda o'qituvchi quyosh ✨ nurlari ta'sirida muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaryapti. Dengiz va okeanlar suv bug'lari bug'lanib turadi, o'quvchi mavzuni tushuntirish uchun oson yo'llarni izlab topayapti. Endi dars davomida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga o'quvchilar javob bera boshlaydilar. Bunda o'quvchilar tushunish uchun oson yo'l tanlagani uchun ular ketma -ketlikda shosha -pisha men-menlab javob bera boshlaydilar. Bunda o'quvchilar navbatma -navbat savollarga javob bergen o'quvchilarni olgan baholarini doskaga ketma -ketlikda javobini qisqa qilib baholanadi.

Uchinchi bosqichd. ☁ Bu bosqichda o'quvchilarga bulut ☁ jarayonini bulut ☁ misolida tushuntiramiz .

Ma'lumki okean va dengizlar suvi bug'lanib konferentsiyalanishini natijasida bulut ☁ hosil bo'ladi, bu yerda o'quvchilar tomonidan berilgan ketma -ketlikda va navbatma -navbat olgan to'g'ri javoblar fikrlarni darsda ketma -ketlikda joylab boradi va o'qituvchi tomonidan bir vaqtning o'zida baholanadi va rag'batlantirib boriladi. Hozir biz bu vaziyatga ham teri yondoshilsa to'planib borgan bilimlarni umumiylashtirgan holda bir dengiz misolidir.

Bu to'plagan ballar suv bug'lari bo'lsa doskamiz esa bulut ☁ misolida. Ya'ni okean va dengizlar bu o'quvchilardir.

To'rtinchi bosqich. Yomg'ir. Bu jarayonni yomg'ir misolida tushuntirib ketishimiz mumkun. Bulutlardagi suv bug'lari kondensatsiyalanishi natijada tabiatda yomg'ir bo'lib , yomg'ir to'plagan va olingan ballarni va javoblarni qaytadan o'quvchi tomonidan boyitilib, ixchamlashtirgan holatda o'quvchilar o'zlarini tushunadigan holatda taqdim qilyapti. Yomg'ir tabiatni go'zallashtiryapti, ko'rakmalshtiryapti. O'quvchilarga taqdim etilgan bu bilimlar ular tomonidan mustahkamlanadi. Bu esa ularni mustaqil fikrashga babs munozara yuritishga olib keladi.



Beshinchi bosqich. Shudring nuqtasi. Demak shudring nuqtasi suv bug‘i to‘yinadigan nuqtasiga aytildi. Biz buni o‘quvchilarni baholashda tushuntirishda ko‘zlagan maqsadimizni shudring nuqtasi misolida tushuntiramiz.

Agar suv bug‘lari o‘quvchilar bo‘lsa ko‘zlagan maqsadimizga erishgan bo‘lamiz.

Yakuniy bosqichi. Men bu darsni ob-havo misolida aytmoqchiman. Masalan kun bulut bo‘lsa quyosh qizib ketishi natijasida ob-havoning buzilishi olib keladi. Men bu darsni tabiat hodisalariga bo‘lganim uchun tabiat misolida oddiy til bilan tushuntirdim. "SIKL" metodi ham ketma-ketlikda iborat Fizika qonunlari ham xuddi shunday ketma -ketlikdan iboratdir. Biri ikkinchisini to‘ldirmaydi biri ikkinchisini takrorlanmaydi. Hamma qonuniyatlar aniq faktlarga asoslanadi. Agar bu qonunyatni ob-havo misolida ko‘rsak , ob-havo buzilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar o‘quvchilar 7-sinf darsligadayoq o‘rganmasa "SIKL" metodi ketma -ketlik buziladi. Keyingi sinf darslarini o‘zlashtirishicha olmasliklari mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida "SIKL" metodidan foydalanib fizika darslar o‘tilsa dars mazmunli va samarali bo‘ladi. Men o‘ylaymanki sinfdagi o‘quvchilar fikrlash qobiliyati kengayadi, tabiatni sevishni, qadrlashni, asrashni o‘rganadilar. Vatanga bo‘lgan mehr ortadi va qolaversa kasb hunar tanlashga ham qiziqishlari ortadi. Bizning maqsadimiz, bilim berish bilan birgalikda fanimizning mohiyatini tushuntira olishimizda deb o‘ylayman. Birgina bu mavzu emas balki,boshqa mavzularni ham shunday tashkil qilishimiz mumkin. Yakuniy xulosa shundan iboratki, o‘quvchilarga yaxshi bilim berish, maqsadimiz esa bilim bergen o‘quvchilarga o‘z kasbini fidoyilari , O‘zbekistonimizga munosib inson bo‘lib yetishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Краткий курс физики: Учеб. пособие для вузов. М.: Высш. шк., 2000.
2. Кембровский Г.С. Приближенные вычисления и методы обработки результатов измерений в физике. -Минск: Изд-во "Университетское", 1990. -189 с.
3. Матвеев А.Н. Механика и теория относительности. -М.: Высшая школа, 1986. -320 с.
4. Петровский И.И. Механика. -Минск: Изд-во БГУ, 1973. -352 с.4. Савельев И.В. Курс общей физики. -М.: Наука, 1982. Т.
5. Механика. Молекулярная физика. -432 с.5. Сивухин Д.В. Общий курс физики. М.: Наука, 1989 Т.



ТО'ТИQUSHLARNING OZIQLANISHI VA ULARGA BERILADIGAN OZIQNING ULARGA FOYDASI VA ZARARI

TOJIDDINOV MUHAMMADSODIQ*Ilmiy ish rahbari: Shaxnoza Saidxanova**Abu Ali Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan mакtabning 7-b sinf o'quvchisi*

ANNOTATSIYA

Jahonda juda ko'p turli xil to'tiqushlar mavjud, ularning aksariyati tropik va subtropik muhitda yashaydilar. To'tiqushlarning 3 xil oilasi mavjud: Psittacoidea, ular haqiqiy to'tiqushlar sifatida tanilgan. Kakadular bo'lган Cacatuoidea va Yangi Zelandiya to'tiqushlari bo'lган Strigopoidea. Boshqa qushlardan farqli ularoq to'tiqush ovqatlanayotganda ovqatni tumshug'iga qadar ko'tarib turishi mumkin. Ular ovqatni bir oyoq bilan ushplashlari va keyin tumshug'iga ko'tarib uni tishlashlari mumkin. Aslida, to'tiqushlar insonlarga o'xshab ovqatlanishadi. Ularning go'shtli oyoq barmoqlari inson barmoqlari kabi ishlaydi. To'tiqushlar atrof-muhitga moslashishi uchun tovushga taqlid qiladilar. Bu ijtimoiy qushlar o'zlarini chetda his qilishni yoqtirmaydilar, shuning uchun ular muloqot qilish uchun atrofida eshitadigan tovushlarga taqlid qiladilar. Ularda odamlardagidek ovoz paychalari yo'q, ular to mog'idagi mushaklar yordamida havoni boshqacha yo'naltiradi, bu esa ularga telefon jiringlashi, eshikning g'iylashni yoki itning huriyotgani kabi tovushlarni taqlid qilishga imkonini beradi.

KIRISH

To'tiqushlar qanchalik katta bo'lsa, ularning umri shunchalik uzoqroq bo'ladi. Masalan, Afrika Grey to'tiqushi 60 yoshdan oshiq yashashi ma'lum. Macaws odatda 25-50 yil yashaydi, o'rta bo'yli to'tiqushlar odatda 15-20 yil yashaydi. Uy hayvonlari to'tiqushlari odatda yovvoyi to'tiqushlarga qaraganda ko'proq yashaydi, chunki ularga yirtqichlar va kasalliklar kamroq tahdid soladi. Uydagi to'tiqushning umri taxminan 30 yilni tashkil qiladi, ko'pchiligi 30 yoshdan ham ko'proq yashaydi. Erkak va urg'ochi to'tiqush oilaviy hayot boshlaganlaridan so'ng, ko'payish davridan tashqari, doim birga bo'ladilar. Ular bir-birlaridan agar ulardan yosh avlod qolmayotgan bo'lsa yoki sherigi vafot etsa ajralishlari mumkin. Albatta to'tiqushlar egilgan tumshug'i bilan mashhur. Tumshuqning yuqori qismi pastki qismidan kattaroqdir. Barmoqlaringizni to'tiqushning tumshug'iga yaqin olib bormaslik tavsiya etiladi (agar ular bilan juda yaqindan tanish bo'lmasangiz). Eng katta macavs



to'ti qushiningning tumshug'i shunchalik kuchliki, ular brazil yong'og'ini maydalashi va hatto u bilan metall qafaslarni sindirishi mumkin.







ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

To'tiqushlar urug'larni yaxshi ko'radilar va ularni kun bo'yi mazza qilib bilan yeyishlari mumkin. Ularning kuchli tumshug'i yong'oqlarni yorishni osonlashtiradi! Shuningdek, ular gullar, mevalar va hasharotlarni iste'mol qiladilar. Garchi to'tiqushlar ko'prina narsani yeyuvchi bo'lsalar ham, ularni go'sht bilan boqishning hojati yo'q, chunki ular meva va sabzavotlarni bemalol paqqos tushira olishadi.

Aslida, sevimli to'tiqushingiz uchun rang-barang oziq-ovqat berilishi ular uchun foydadan holi emas. To'tiqushlar aqli mavjudotlar ekanligi bilan mashhur. Ular nafaqat inson nutqiga taqlid qila oladilar, balki nolning ma'nosini qo'shishlari, ayirishlari va tushunishlari mumkin. To'tiqushlar aqli bo'lishlariga sabab, odamlarga o'xshash miya nerv zanjiri mavjud. Olimlarning fikricha, to'tiqushlar 4 yoshli odam bolasi bilan bir xil mantiqiy tushunchaga egadirlar.

To'tiqushlar bir vaqtning o'zida 2 tadan 8 tagacha tuxum qo'yadilar
Ularda inkubatsiya davri 18 dan 30 kungacha davom etadi. Juftliknin har biri tuxumchalarni o'z issiqligi bilan ta'minlash uchun ularning ustida o'tiradilar.

Tuxumni yorib chiqgan to'tiqushchalarning 3-haftasidan patlari chiqqa boshlaydi lekin ular 1 yoshdan 4 yoshgacha (turiga bog'liq) bo'lgunlariga qadar balog'at yoshiga yetmaydilar. Hindistonda to'tiqushlar qushlarning yovvoyi turiga kiradi, shuning uchun ularni qafasda saqlash taqiqlanadi. Ushbu qonunni buzgan har bir kishi jarimaga tortilishi va 6 yilgacha qamoq jazosiga hukm qilinishi mumkin ...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://ginnes.uz/uz/articles/faktlar/toti-qushlar-haqida-10-ta-qiziqarli-fakt>



STOL TENNISCHILARNI DASTURLASH ELEMENTLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TAKTIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH.

*UrDU. Sport va san'at fakulteti
Sport faoliyati yo'naliishi talabasi
Begjanova Orazxon Abay Qizi*

Annototsiya: Stol tennis sport turi sport turlari ichida eng murakkab sport turlaridan biri hisoblanadi. Asosiy farqi taktik harakatlarning muvofiqligi, texnik mahorat va kordinatsion murakkablikdadir. Harakatlarni dasturlash orqali turli murakkab koordinatsion harakatlarga yechim topiladi va texnik mahorat oshiriladi. Ularning bir biriga bog'liqligi to'laqonli muvofiqlashtiriladi.

Kalit so'zlar: Texnika, taktika, muvofiqlik, koordinatsiya, chaqqonlik, mahorat, harakat, jismoniy tayyorgarlik.

Аннотация: Настольный теннис – один из самых сложных видов спорта. Основное отличие – согласованность тактических действий, техническое мастерство и сложность координации. Посредством программирования движений находят решения различных сложных скоординированных движений и совершенствуют технические навыки. Их взаимозависимость полностью скоординирована.

Ключевые слова: Техника, тактика, координация, координация, ловкость, ловкость, движение, физическая подготовка.

Annotation: Table tennis is one of the most complex sports. The main difference is the consistency of tactical actions, technical skill and complexity of coordination. Through movement programming, a variety of complex coordinated movements are solved and technical skills are improved. Their interdependence is fully coordinated.

Key words: Technique, tactics, coordination, coordination, dexterity, skill, movement, physical training.

Kirish. O'zbekistonda tennisning ommaviylici va mashhurligini, salomatlikni mustahkamlashda uning muhim o'rinni tutishini, xalqaro maydonda sport aloqalarini kengaytirishdagi keng imkoniyatlarini hisobga olib va uni yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:



1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi yoshlarining “Kamolot” jamg‘armasi, respublika Tennis federatsiyasi va boshqa manfaatdor tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi Tennisni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida, barcha viloyatlarda va Toshkent shahrida uning bo‘limlarini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin.
2. Quyidagilar Tennisni rivojlantirish jamg‘armasining asosiy vazifalari etib belgilansin: korxonalarda, o‘quv yurtlarida va maktablarda, sport jamiyatlarida, shuningdek, aholi yashash joylarida tennis bilan shug‘ullanish uchun moddiy-texnika bazani mustahkamlashga har tomonlama ko‘maklashish; yoshlar, ishchilar, xizmatchilar, talabalar, mакtab o‘quvchilari aholining boshqa toifalarini sportning ushbu turi bilan shug‘ullanishga jalb qilish, sanoat korxonalari, o‘quv yurtlari, sport jamiyatlar, tashkilotlarda tennis bilan shug‘ullanish bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, mahalliy, mintaqaviy va respublika musobaqalari o‘tkazish, yetakchi va istiqbolli sportchilarni xalqaro musobaqalarda faol qatnashtirish; iqtidorli bolalarni bolalar-o‘smirlar sport maktablarining tennis bo‘limlariga qabul qilish uchun aniq maqsadni ko‘zlab izlash va tanlash hamda eng istiqbolli bolalarni eng yaxshi xalqaro tennis maktablariga yuborish; zaxira va xalqaro turnirlar uchun yuqori klassli tennischilar tayyorlash maktablari tashkil etish to‘g‘risida ko‘plab amaliy harakatlar amalga oshirildi. Stol tennisi mamlakatimizda ham, xorijda ham ommaviy sport turlaridan biridir. Rossiyalik tennischilar hali Osiyo mamlakatlari, xususan, Xitoyning ushbu sport turining eng yaxshi vakillari darajasiga erisha olishmadni, lekin ular doimiy ravishda sport mahoratining o’sishini namoyish etadilar va ba’zi hollarda eng kuchli xorijiy raqiblardan deyarli qolishmaydi. Rossiya stol tennischilarining mahoratini oshirish uchun zaxiralarni ikkita nisbatan mustaqil yo’nalishda topish mumkin: 1) ixtisoslashtirilgan sport maktablarida va olimpiya zaxiralari maktablarida bolalar va o‘smirlar bilan ishslashda, 2) sport bilan ishslashda amaliy ko’nikmalar bajarilib bormoqda.

Natija. Sportchilarni musobaqalarda ishtirot etish faoliyati ularni muayyan stol tennis sport turiga xos bo‘lgan harakat malakalarini maromiga yetkazib bajarishlarini taqozo etadi. Harakat malakalarini ijro etish texnikasi qanchalik takomillashgan bo‘lsa, musobaqada g‘alabaga erishish imkoniyati shunchalik keng bo‘ladi. G‘alabaga erishish bu musobaqani asosiy maqsadidir. Lekin bunday maqsad cho‘qqisini zabt etish imkon faqat o‘rgatish va texnik tayyorgarlik jarayonlarining samarasiga bog‘liq. O‘rgatish va umuman sport tayyorgarligi stol tennis sport turini



o'rgatishda zamonaviy nazariy va uslubiy asoslariga tayangan holda amalgamoshirilishi zarur. O'rgatish jarayoni va texnik tayyorgarlik bu ko'p yillik pedagogik faoliyat bo'lib, ma'lum harakatni yoki harakatlar majmuasini texnik jihatdan ma'lum maqsadli tartibda, vaziyatga muvofiq, barqaror, mukammal va samarali ijro etilishini ta'minlovchi murakkab jarayondir. Mazkur jarayon sport tayyorgarligining asosiy va ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. O'rgatish jarayoni va texnik tayyorgarlikning asosiy vazifasi o'yin texnikasining biomexanik qonuniyatlarini o'zlashtirish, harakat yoki harakatlar majmuasini har qanday vaziyatlarda mahorat bilan barqaror va samarali ijro etish imkonini yaratishdan iboratdir. Yangi harakat texnikasini o'rghanish va o'zlashtirish mayjud harakat tajribasiga asoslanadi. Harakat yoki harakatlar majmuasining texnikasini o'zlashtirish shug'ullanuvchida kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni yetarli darajada rivojlantirilishini taqozo etadi. Bu sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarilish tartibi va yo'nalishi o'rgatiladigan (o'zlashtiriladigan) o'yin malakasining texnikasiga "hamohang" bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Harakatlar texnikasiga o'rgatish jarayonida qo'yidagi uslubiy tavsiyalarga rioya qilish lozim:

- birinchidan, ma'lum harakat texnikasini qaytadan o'rgatish holiga chek qo'yish maqsadida o'rgatish jarayonini boshlanishidayoq to'g'ridan-to'g'ri harakat texnikasini eng samarali nusxasini o'rgatish zarur;
- ikkinchidan, o'rgatish jarayonida nazariy mashg'ulotlarga alohida e'tibor berilishi zarur, toki o'rganuvchi o'rgatilayotgan harakat texnikasini ijro etish tartibini ipidan ignasigacha fikran to'liq anglasin, xotirada yaxshi eslab qolsin va tafakkurida to'g'ri bajara olsin;

Texnik tayyorgarlikni amaliyotga joriy etish, o'rgatish va takomillashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, o'z ichiga bir necha bosqichlarni oladi. Shunday qilib, shartli ravishda "o'rta darajadagi" deb tasniflanishi mumkin bo'lgan stol tennisini yaxshilash istagi va bunday sportchilarning sport tayyorgarligini shakllantirish usullari o'rtasida ma'lum bir qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Yuqori sport mahorati guruhiga kirmaydigan stol tennis o'yinchilarini tayyorlash - bu jismoniy va aqliy fazilatlarning ma'lum bir tuzilishi va dinamikasiga ega bo'lgan sportchilarning ushbu toifasiga xos bo'lgan o'ziga xos maqshlarni hisobga olgan holda, jismoniy va texnik va jismoniy tayyorgarlikni ta'minlaydigan jarayon. Taktik takomillashtirish mahorati bilan bog'liq. Stol tennischilarining ushbu guruhini tayyorlashning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish mashg'ulot vositalari va usullarini tanlashga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Bunday holda, dasturlash elementlaridan foydalangan holda sport mashg'ulotlarini qurishga uslubiy yondashuv istiqbolli ko'rinadi,



ya'ni. dasturlashtirilgan ta'lif usulining elementlari. Bu maqsadlar tizimi, o'qitish tizimining bir nechta nisbatan mustaqil darajalari va dasturni amalga oshirish samaradorligini doimiy ravishda baholashga imkon beradigan nazorat tizimining mavjudligini ta'minlaydi. Zamonaviy stol tennisida dasturlash imkoniyatlari nihoyatda katta va bu yondashuvning joriy etilishi stol tennischilarining tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi dasturlashtirilgan mashg'ulot usuli elementlari asosida stol tennisi o'yinchilarining sport tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti stol tennischilarining sportga tayyorgarligi.

Stol tennisida sportchining taktik va aqliy faoliyati ayniqsa o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli, biz qo'llagan sport mashg'ulotlarining ko'pgina vositalari va usullari taktik yo'nalishda bo'lib, nafaqat o'yinchilarining texnik va taktik mahoratini oshirishga, balki tegishli maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish.

Yuqori malakali sportchilarning ish yuklarining hajmi 70% va undan ortiq maxsus mashqlardan iborat bo'lganligi sababli, mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida ularning tayyorgarligining barcha jihatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ta'sir qiladi. Shuning uchun ilg'or trenerlar o'quv faoliyatini ikkita ko'rsatkichga ko'ra rejalashtirishlari bejiz emas:

- 1) maxsus bo'lmasagan ish,
- 2) o'ziga xos.

Va allaqachon ushbu ikki ko'rsatkich doirasida muayyan vosita fazilatlarini rivojlantirishga har tomonlama yoki tanlab ta'sir qilish uchun vositalar tartibga solinadi.

O'quv jarayonida dasturlash tamoyilini amalga oshirish uchun keltirilgan tipik haftalik mikrotsikllar (MC) shaklida individual o'quv mashg'ulotlarini tizimlashtirish tavsiya etiladi. Tayyorgarlik davriga (bosqichiga) qarab, MCning alohida kunlari uchun harakatlantiruvchi tizimlar tavsiya etilgan. Tayyorgarlikning alohida bosqichlarida o'quv ta'sirining yo'nalishi quyidagi mashqlar orqali amalga oshiriladi: Kompleks mashg'ulot.

1. Yurish va oson yugurish - 3 min.
2. Murakkab vosita tuzilishi bilan yugurish mashqlari (to'satdan burilishlar, buyruq bo'yicha to'xtash, qo'l harakati va boshqalar) - 4 min.
3. Cho'zish - 5 min.
4. Dumbbelllar bilan mashqlar - 6 min.
5. Raketka va to'p bilan jonglyorlik - 3 min.
6. Tennis stolidagi harakatlar - 3 min.



7. Dumbbelllar bilan mashqlar - 5 min.
8. Arqon bilan sakrash - 10 min.
9. Raketka va to'p bilan jonglyorlik - 4 min. S. Tennis stolidagi harakatlar - 4 min.
11. Akrobatik mashqlar - 15 min.
12. Devorga qarshi tennis texnikasini bajarish - 10 daqiqa.
13. Kuchli gimnastika mashqlari - 8 min.
14. Arqon bilan sakrash - 10 min.

Mashqlar seriyasi o'rtasida tayyorgarlik bosqichi va mashg'ulotning maqsadiga qarab bir daqiqadan uch minutgacha davom etadigan dam olish mavjud.

Tayyorgarlik davrining umumiyligi tayyorgarlik bosqichi: dushanba - tezlikning vosita sifatining boshlang'ich ta'limi, seshanba - tezlik-kuch sifatlarining boshlang'ich ta'limi, chorshanba - texnik tayyorgarlik, payshanba - umumiyligi muvofiqlashtirish qobiliyatining boshlang'ich ta'limi, juma - individual texnik va taktik tayyorgarlik. , Shanba - umumiyligi chidamlilikning boshlang'ich ta'limi. Tayyorgarlik davrining maxsus tayyorgarlik bosqichi hisoblanib unga ko'ra quyidagi konyugatsiya mashg'uloti rejalashtirildi :

Konyugatsiya mashg'ulotlari:

1. Raketkaning kafti va orqa tomoni bilan har xil holatda to'pni jonglyor qilish - 4 min.
2. Har xil holatda taqlid mashqlari va harakatlar - 4 min.
3. Bir vaqtning o'zida harakatlarni simulyatsiya qilishda raketka va to'p bilan jonglyorlik - 5 min.
4. Xuddi shunday, mashqlar tezligini bosqichma-bosqich oshirish bilan - 4 daqiqa.
5. Bir vaqtida jonglyorlik bilan yengil atletika mashqlari:
 - yuqori sonni ko'tarish bilan yugurish - 2 min.
 - boldirni orqaga tashlab yugurish - 2 min.
 - "qiymalash" yugurishi - 2 min.
 - ko'p sakrash - 4 min.
6. Tenischining o'yin faolligini taqlid qilish, sakrash, sakrash -3 min.
7. Devorga qarshi tennis texnikasini bajarish - 10 daqiqa.
8. Arqon bilan sakrash - 10 min.
9. Bir vaqtning o'zida harakatlarni simulyatsiya qilishda raketka va to'p bilan jonglyorlik - 5 min.
10. Arqon bilan sakrash - 8 min.
11. Raketkaning kafti va orqa tomoni bilan har xil holatda to'pni jonglyor qilish - 4 min.



12. Erkin shaklda sakrash tezligini oshiruvchi ko'p sakrash - 4 min.
13. Raketkaning kafti va orqa tomoni bilan har xil holatda to'pni jonglyor qilish - 2 min.

Mashqlar seriyasi o'rtasida tayyorgarlik bosqichi va mashg'ulotning maqsadiga qarab bir daqiqadan uch minutgacha davom etadigan dam olish mavjud. Bu mashg'ulotlar har bir to'plami bo'lajak sportchilarning musobaqa davrida qo'llaniladi.

XULOSA.

Tennis sport turida harakatlar muvofiqligini takomillashtirish va texnik mahoratni oshirishda qo'llanilgan quyidagi dastur mashg'ulot davrlarida samarali foydalanildi va sport musobaqa natijalarining o'sishiga olib kelindi unga ko'ra:

Stol tennisi bo'yicha ixtisoslashgan sportchilar sport o'yinlarining har qanday turi vakilining muayyan harakat faoliyatiga xos bo'lgan harakat sifatlarining yuqori darajada rivojlanishi, shuningdek, maqsad aniqligi bilan bog'liq bo'lgan harakat texnikasi xususiyati bilan ajralib turadi. to'g'ridan-to'g'ri, bu o'yinda bir vosita vazifasini hal qilish muvaffaqiyat bilan bog'liq. Stol tennisidagi o'yin faoliyati uchun eng muhim aqliy sifat - bu tez harakatlanuvchi ob'ektni idrok etishda kutishning aniqligi: kutish reaksiyasining nisbatan sodda versiyasida $x = 37,3$ ms, $a = 4,3$; murakkabroq birida $x = 53,4$ ms, $st = 3,3$.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Andryushenko L.B. Adaptasiya yunix basketbolistok k psicheskim sorevnovatel'nim nagruzkam na etape perexoda v komandi bolee visokogo klassa // Tezisi dokladov X1.Vsesoyuznoy nauchno-prakticheskoy konferensii psixologov sporta. - Minsk, 1990. - S. 7-9.
2. Antoxin A.V. Postroenie integral'noy podgotovki fextoval'shikov-rapiristov 15-16 let: avtoref. dis . kand. ped. nauk. -M., 2006. 24s.
3. Araratyan A.B. Struktura i dinamika sensomotorpogo reagirovaniya v prosesse sovershenstvovaniya masterstva: avtoref. diss. . kand. psixol. nauk. Tbilisi, 1981. - 25s.
4. Axmaniskiy A.G. Eksperimental'noe obosnovanie sredstv i metodov razvitiya bistroti i tochnosti situativnoy orientirovki sportsmenov: avtoref. diss.kand. ped. nauk. Tartu, 1971.-25s.
5. Babushkin V.Z. Issledovanie sredstv i metodov povisheniya effektivnosti igrovix deystviy yunix basketbolistov: avtoref. diss. . kand. ped. nauk. -M., 1971. 19 s.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATLILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Zokirova Ma'suma Qahramon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lif)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarb ekanligini va bu muammoga yechimlar hamda bir qator usullar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloq, axloqiy tarbiya, kompetensiya, madaniyatlilik..

Аннотация: В данной статье рассматривается важность развития компетенции морально-этической культуры у учащихся младших классов, а также пути решения этой проблемы и ряд методов.

Ключевые слова: образование, нравственное воспитание, этика, нравственное воспитание, компетентность, вежливость.

Abstract: This article discusses the importance of developing the competence of moral and ethical culture in elementary school students, as well as solutions to this problem and a number of methods.

Key words: education, moral education, ethics, moral education, competence, civility.

Ma'lumki, bugungi kunda yoshlarning tarbiyasi muhim masalalardan biri hisoblanadi, ulardagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni qaysi yo'l bilan, qanday metodlar orqali bugungi zamonda tarbiyalash esa hamon dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada yurtboshimizning quyidagi fikrlari axloqiy tarbiyaga jiddiy yondashish kerakligiga turtki bo'ladi: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib,



o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidlaydi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, bu vazifalar maktabgacha ta’lim muassasalari, maktab, oila, mahalla, keng jamoatchilikka mas’uliyat yuklaydi. Avvalo, o‘quvchilarni qanday tarbiyalash qaysi vositalar orqali tarbiyalash samara berishligi kabi masalalarini belgilab olish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalarini belgilab olish ham muammoning yana bir yechimidir. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) o‘quvchilarda axloqiy his-tuyg‘ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor hamda ko‘nikmalarini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifadir. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantirishda bir necha xil usullardan foydalanish samara beradi, ana shunday usul, vositalardan bir nechtalariga to‘xtalib o‘tish mumkin:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantiradigan manba “Tarbiya” darsligi negizida nazariy tushuncha va misollar yordamida;

2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantiradigan innovatsion metodlar, texnologiyalarni ishlab chiqish orqali;

3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantiradigan kam daqiqalik video-lavhalar yordamida;

4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantiradigan kitoblar, jumladan, ajdodlarimizning nodir asarlari, shu bilan bir qatorda xalq og‘zaki ijod namunalarini va boshqalar yordamida.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi har qaysi davrda ham mas’uliyatli vazifadir. Ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish uchun yuqorida aytib o‘tilgan usullardan foydalanish kerak. Shu o‘rinda, Abdulla Avloniy : “Tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hamma birdek mas’uliyat bilan yondashishi kerakligini uqtiradi. “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur.



Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur” degan fikrlari bilan o‘quvchilarda bu kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagoglarning o‘rnini muhim ekanligi, ularning vazifasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabrdagi nutqi.”Xalq so‘zi” gazetasi.
1. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud Axloq” asari.
2. Rahima Mavlonova, Nargiz Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent -2013
3. Insonni tarbiyalamoq – kelajakni tarbiyalamoq. Tursunova Saida Isakovna Termiz davlat Pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6830668>
5. <https://uza.uz/posts/70440>

**MAVZU: MILLIY LIBOSLAR – MILLIY QADRIYATLAR BEZAGI***Soliyeva Go'zal Salim qizi*

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi Gijduvon tuman 2-son kasb hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi Soliyeva Go'zal

Annotatsiya: Dunyo tarixida kiyim insoniyat taraqqiyotining eng qadim davrlarida, ya'ni 40-25 ming yil ilgari paydo bo'lgan bo'lib, ularda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go'zallik va nafosatga bo'lgan intilishlari yaqqol namoyon bo'ladi. Mintaqamizdag'i iqlim, shart-sharoit va ko'p yillik tarixga ega e'tiqodimiz asosida o'ziga xos milliy liboslarimiz shakllanib kelgan. Milliy liboslarimiz nafaqat millatimiz ko'rmini, balki ma'naviy mafkuralarimizni va dunyo tamaddunida tutgan o'rnimizni ham namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Libos, dunyo, taraqiyot, kiyim, bezak, tarix, go'zallik, milliy, ko'yak, bozor, millat, ayollar libosi, modda, xotin-qizlar

Liboslar – har bir xalq tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u milliy o'ziga xoslikni aks ettiradi. Liboslar turli etnik belgilari bilan ham ajralib turadi.

Dunyo tarixida kiyim insoniyat taraqqiyotining eng qadim davrlarida, ya'ni 40-25 ming yil ilgari paydo bo'lgan bo'lib, ularda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go'zallik va nafosatga bo'lgan intilishlari yaqqol namoyon bo'ladi. Mintaqamizdag'i iqlim, shart-sharoit va ko'p yillik tarixga ega e'tiqodimiz asosida o'ziga xos milliy liboslarimiz shakllanib kelgan. Milliy liboslarimiz nafaqat millatimiz ko'rmini, balki ma'naviy mafkuralarimizni va dunyo tamaddunida tutgan o'rnimizni ham namoyon etadi. bugungi kunda mana shu uzoq tarixni bosib o'tgan, ajdodlarimiz mafkurasi va dunyoqarashi haqida so'zlaydigan milliy liboslarimizni saqlab qolish va targ'ib etish milliyligimizni saqlab qolish demakdir. Bu borada Yurtboshimizning «Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat», degan so'zlarini alohida ta'kidlash o'rinci. Shu ma'noda Yakkasaroy tumani Oila va xotin-qizlar bo'limi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti hamda Amaliy san'at muzeyi hamkorligida «Milliy liboslarimiz – milliy qadriyatlarimiz bezagi» mavzusida ma'naviy-ma'rifiy



tadbir tashkil etildi. Tadbir davomida Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti prorektori, texnika fanlari doktori, professor Xolida Komilovaning liboslar kolleksiyasi namoyishi va kitob taqdimoti o‘tkazildi.

O‘rta asrlar libos gavdani turli vositalar (shnurlar, korsetlar) yordamida qattiq qisib, tabiiy shakldan uzoqlashtiradigan «g‘ilof» tizimining rivoj topishini boshlab berdi. Uyg‘onish davrida estetik dunyoqarashlarni qayta baholash yuz beradi: yangi mafkura shakllanadi. Bu buyuk geografik kashfiyotlar, ilm va texnika yutuqlari davri, san’at davri edi. Bu Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo kabi ulug‘ allomalar davri edi. Bu davr kishisi faol, kuchli, g‘ayratli, harakat qilib to‘ymaydi. U o‘rta asrlardagi singari gavdasidan uyalmaydi, balki u bilan faxrlanadi. Taxlamalar qilingan va basavlat turadigan yubka, ko‘plab bukmali va kesmalari bor yengli, ochiq dekolteli liboslar. Libos og‘ir duxobadan, parcha, atlas, movutdan, mo‘ynalardan tikiladi. Libosda juda ko‘plab qimmatbaho tosh bezaklari ko‘zga tashlanadi. Soch oddiy, tabiiy holda, to‘r tortib, harir gazlama tutib, qimmatbaho ziynatlar taqib bezatilgan. Gavdaning plastikasi o‘zgaradi, chunki podsho saroylarida oyoq uchida yurish lozim bo‘lib, bu poshnali poyabzal paydo bo‘lishiga olib keladi. 7 Gavdani munosib ko‘rsatish uchun libosning yelkasi, qorin qismi tagiga har xil tagliklar qo‘yadilar. Ayollar libosi qimmatbaho gazlamalardan (parcha, muar, atlas, duxobadan) ko‘p qavatli qilib tikilib, naqsh jimjimalari, bantlar va to‘qilgan to‘r bilan bezatiladi. Erkaklar modasida bant boylangan, to‘r tikilgan, qimmatbaho toshlar taqilgan harbiy libos (mushketyorlar libosi) hukmronlik qiladi. Parik modaga kiradi. Ayollarni ozodlikka chiqarish harakatining boshlanganligi, ayollarning velosiped, tennis, chavandozlik kabi ayrim sport turlariga qiziqishi ham libosda aks etdi. Erkaklar libosi ishchanlikka, amaliy faoliyatga moslanib, ular uzil-kesil va batamom ayollar modasiga birinchilikni berib qo‘yadi. XX asr shakl va materiallar tanlashda qat’iy xizmatboplilikni, soddalikni, bemalollikni o‘z prinsipi deb e’lon qiladi. Bu asr fan-texnika taraqqiyoti asri, sanoat ishlab chiqarishning gurkirab o‘sish asri, ayol kishining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida va ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashuvi asri, kosmos asridir. Libos korset, krinolin, turnyur va hokazo sun’iy narsalardan gavdani xalos qiladi, ayol gavdasini ozod etadi, bashanglik haqidagi eskicha tasavvur o‘zgaradi. Libosning obrazli ifodaliligiga endilikda ilgarigidan boshqa vositalar yordamida erishiladi, ya’ni siluet tez-tez almashib turadi, chiziqlar injiq va doimiy emas: gavda bilan libosning o‘zaro bog‘liqligi dinamikasida ifoda topadi — libos bir qarasangiz gavdaga yopishib, gohida unga salgina tegib, ba’zan esa gavdadan juda qochib turadigan bo‘ladi. Libosni shakllantirishda xizmatboplilikni asos qilib olgan dizayn, ya’ni sanoat



buyumlarini badiiy loyihalash faol rol o‘ynaydi. Libos — bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo‘lib, tanani iqlim ta’siridan saqlaydi va odamning o‘ziga xos ba’zi xususiyatlarini namoyon qiladi.

Foylanilayotgan adabiyotgan

- 1.Mamurova D.I Amaliy bezak san’ati. Toshkent 2008
- 2.uz.tierient.uz
- 3.Mamurova D.I. Sobirova T.R Badiiy bezak san’ati
- 4.www.dressis.uz
- 5.Bulatov SS. O’zbekiston xalq amaliy bezak san’ati. Toshkent:”Mehnat”,1991.



**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANNI
O`QITISHDA ELEKTRON JADVALLAR VA AXBOROT
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Ro'ziyeva Anora Muhammadiyor qizi
G'ijduvon 2 son kasb hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiya (AKT) larini yanada rivojlantirish, har bir sohaga tatbiq qilish, mutaxassislarining kompyuter savodxonligini oshirish kabi masalalar davr talabiga muvofiq yechilmoqda.

Kalit so`zlar: axborot, texnologiya, elektron jadval, AKT, formulalar

KIRISH

Ayni vaqtida, ta'lrim jarayonida o'qitishda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogki va axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi. Bu jarayonlar o'quvchini berilgano'quv materialini yaxshi o'zlashtirishi va ular mazmun-mohiyatini uzoq vaqt esda saqlab qolishiga, bilimko'nikmalarini yanada mustahkamlashga imkon beradi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari ko'p sabablarga ko'ra favqulodda noodatiy fan hisoblanadi. Chunki bu fanni o'qitishda o'quv dasturidagi eng yangi, eng istiqbolli, eng dinamik va boshqa o'ta qiziq va yangi texnologiya hamda materiallardan foydalanish kerak. SHuningdek, dars uchun o'qituvchi va o'quvchi ixtiyorida bo'lgan kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun fanning o'quv qo'llanmalari ham g'ayrioddiy bo'lishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchining jamiyatni axborotlashtirish sharoitida ishlashga tayyorligini belgilab beradigan quyidagi axborot-kommunikativ salohiyatlar muhim hisoblanadi: kasbiy vazifalarni informatikaning zamonaviy vositalari va metodlarini axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda bajara olish malakasi; kasbiy faoliyatda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalinish borasida tayyorgarlik darajasini real aks ettiruvchi, shakllanib ulgurgan shaxsiy sifatlari; vaziyatni to'g'ri baholash va pedagogik faoliyatda axborot- kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda samarali qarorlar qabul qila oladigan predmet-maxsus bilimlarni tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lish.

Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtda



ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari, grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin. Kompyuter texnologiyasida matnlar, tasvirlar, ovozlar, shakllar va shunga o'xshash boshqa ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari maxsus dasturlash yordamida juda yengil va tezkorlik bilan hal etilmoqda. Shuning uchun matematika, fizika, ximiya, biologiya va boshqa fanlarni o'qitishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish ijobiy natijalarni olib kelmoqda.

Haqiqatdan o'qituvchi Windows operatsion tizimi bilan ishlataladigan Word matn muharriri, Power Point, Internet, Excel va boshqa maxsus amaliy dasturlar, multimedia vositalari yordamida yengilgina o'z darsini kompyuter texnologiyasidan foydalanib tashkil etishi mumkin. Buning natijasida o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi, o'tilgan mavzuni tushinish, kerakli tushunchani anglash va o'zlashtirish jarayoni tez kechadi.

Elektron jadvallar asosan iqtisodiy masalalarni yechishga mo'ljallangan bo'sada. Uning tarkibiga kiruvchi vositalar boshqa sohaga tegishli masalalarni yechishga ham, masalan, formulalar bo'yicha hisoblash ishlarini olib borish, grafik va diagrammalar qurishga katta yordam beradi. Exceldagi avtomatik to'ldirish imkoniyatidan foydalanib sonli qiymatlarni va matn elementlarini kiritishni osonlashtirish mumkin. Bu imkoniyat ayniqsa funksiya qiymatlarini jadval-lashtirishda katta yordam beradi.

Funksiya qiymatlarini ma'lum qadam bilan hisoblash matematikaning juda ko'p bo'limlarida uchraydi. Ayni shu imkoniyatlardan foydalanib matematika fakultetidagi talabalar funksiyalarning grafiklarini hosil qilishlari va shu tariqa ayrim murakkabroq funksiyalarning xossalarni ekranda aniq ko'rishlari mumkin. Excel dagi funksiya ustasi funksiya va uning argumentlarini yarim avtomatik tartibda kiritishga yordam beradi. Funksiyalar ustasini qo'llash funksiyaning yozilishi va uning hamma argumentlarini sintaktik to'g'ri tartibda kiritilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida talabalarning funksiyalarning xossalarni qiyalmay va tezda o'rganishlariga juda katta yordam beradi.

Ma'lumotlar bazalarini boshqarishning ko'pgina tizimlari ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga ishlov berish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Natijada, ma'lumotlar asosida ma'lumot bazalarining yangi jadvallarini yaratish mumkin. Tarmoq texnologiyalarining yoyilishi munosabati bilan ma'lumotlar bazasini



boshqarish tizimlaridan butun jahon kompyuter tarmog‘ining serverlarida joylashgan uzoqlashtirilgan va taqsimlangan resurslar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lish ham talab qilinadi.

Elektron jadvallar. Elektron jadvallar turli tipdagi ma’lumotlarni saqlash va ularga ishlov berish uchun mo’ljallangan kompleks vositalardan iborat. Ular ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bilan qaysidir darajada o’xshash, ammo bunda asosiy urg‘u ma’lumotlarning massivlarini saqlash va ularga qo’llashni ta’minalashga emas, balki ma’lumotlarni ichki mazmuniga muvofiq ravishda qayta tashkil qilish, o’zgarish tomonga ko’chgan.

Odatda, ma’lumotlarning keng spektorini (raqamli va matnlaridan to mul’timediya yiyargacha) o’zlarida mujassam etgan ma’lumotlar bazalaridan farqli o’laroq, elektron jadvallar uchun raqamli ma’lumotlarda diqqatni jalb qilish yahshiroq. Shu bilan birga elektron jadvallar raqamli tipdagi ma’lumotlar bilan ishlash uchun ancha keng imkoniyatlarni taqdim etadi.

Elektron jadvallarning asosiy xususiyati shundaki, jadvalning istalgan yacheykalarining qiymatida o’zgarish ro'y berganida, o’zgarilgan nisbatlar bilan bog‘liq bo’lgan, matematik yoki mantiqiy ifodalar (formulalar) bilan berilgan boshqa hamma yacheykalar qiymatining avtomatik tarzda o’zgarishi sodir bo’ladi. Elektron jadvallar bilan ishlashning sodda va qulayligi buxgalteriya sohasida, moliya, xom ashyo va tovar bozorlarini tahlil qilishning universal natijalariga, ishlov berishning qulay vositalari sifatida, ya’ni raqamli ma’lumotlarning yetarli darajada katta hajmlarda doimiy takrorlanib turadigan hisob-kitoblari zarur bo’lgan hamma joylarda keng qo’llanishiga sabab bo’ldi.

XULOSA

Kompyuterda excel jadvallar bilan ishlashni shaxsiy kompyuterdan foydalanishda eng mashhur sohalardan biri sifatida qayd etish mumkin. Shuni ta’kidlash mumkinki, jadvallar bilan ishlash nafaqat professionallar, balki har bir tashkilotlarda ham shug’ullaniladi. U bilan ishlashda ko’pchilik insonlarning ko’p vaqtlarini tejaydi.

Informatika va axborot texnologiyalari o’qituvchisi hozirgi vaqtda kompyuter grafikasi, jadvallar va matn muharrir bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda amaliy ko’nikmalarni rivojlantirish talab etiladi.

O’sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy - mafkuraviy jihatdan tarbiyalash ishi faqatgina ta’lim muassasalaridagina olib borilib qolinmaydi. Balki, bu ish umumjamiyat miqyosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda axborot texnologiyalari,



intârnât tarmog`i, oila, mahalla, xuquqiy tashkilotlar, ma'naviy - mafkuraviy markazlar, ijtimoiy institutlar, mehnat jamoalarining o`rni ham beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboyeva G.K. Kostyum dizayni. Darslik - T. : TTESI, 2013.
2. А.Р.Жўраев, Д.А. Сайфуллаева, Ш.Бахронова Замонавий таълим технологиялар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни // Science and Education. № 2020.Б.169-176
3. Sulaymanova, D. (2021, December). FORMS OF ORGANIZATION OF LESSONS INFORMATICS AND INFORMATICAL TECHNOLOGIES AT SCHOOLS. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (pp. 7-10).
4. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them SNB O Khamidov, D Sh Yavmutov E3S Web of Conferences 431 (01056), EDP Sciences
5. Development of " green economy" in the sectors of the economy and its prospects SN Burxonov Academic research in educational sciences 3 (5), 1332-1337
6. Toshtemirov D., Muminov B., Saidov J. Fundamentals of compilation of electronic tasks for students to test and strengthen their knowledge of database //International Journal of Scientific and Technology Research. - 2020. - Т. 9. - №. 4. - С. 32263228.
7. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.
8. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: "Universitet", 2019. - 232 b.
9. D.B.Abduraximov, D.E.Toshtemirov. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2020. - 224 b.
10. Toshtemirov D.E. Ta'lim portalı: yaratish tamoyillari, mazmuni va foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: Universitet. 2015. -156 b.
11. Toshtemirov D.E. Ta'lim portalining tarkibiy tuzilishi va uslubiy ta'minoti. // Kasb-hunar ta'limi, 2010. № 2. -. B. 10-11.J.D.Saidov. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021. <https://doi.org/10.17605/QSF.IO/5R96C>.
12. Abdubanapovich, Y. U., & Qizi, S. M. B. (2022). MASOFALI O 'QITISH JARAYONIDA INFORMATIKANI FANINI O'QITISHDAGI DIDAKTIK TIZIMLAR. Science and innovation, 1(B3), 797-800.
13. J.D.Saidov. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5R96C>.



14.Jasur Doniyor O'G'Lи Saidov, Saydullo Payzievich Allayorov, Said Xalilovich Islikov MA'LUMOTLAR OMBORINI YARATISH BO'YICHA KASBIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASH MEZONLARI // Scientific progress. 2021. №1. URL: <https://cyb.erleninka.ru/article/n/ma-lumotlar-omborini-yarati-sh-bo-yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari> (дата обращения: 02.06.2022).



КО‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARINING QO‘LLANISHI

Arabboyeva Maxfuzaxon Akramjonovna

*Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi*

Nurmatova Zuhraxon To‘lqinboy qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Tinish belgilari yozma muloqotning ravshanligi va samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil gaplar birikkan qo‘shma gaplarda tinish belgilarining to‘g‘ri qo‘llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola qo‘shma gaplardagi bo‘laklarni bog‘lash va ajratish uchun ishlatiladigan turli xil tinish belgilarini o‘rganish, ularning vazifalarini ta’kidlash va misollar keltirishga qaratilgan. Ushbu belgilardan qanday qilib to‘g‘ri foydalanishni tushungan holda, yozuvchilar o‘z fikrlarini samarali etkazishlari va xabarlari to‘g‘ri talqin qilinishini ta‘minlashlari mumkin.

Kalit so‘zlar: oddiy jumla, murakkab jumlalar, tinish belgilari, vergul, o‘tish so‘zları, qo‘shma-murakkab gap

Qo‘shma gap - bu ikkita mustaqil gapni, odatda va yoki lekin kabi muvofiqlashtiruvchi bog‘lovchi bilan bog‘laydigan gap. Bu o‘z-o‘zidan etarli bo‘lgan, lekin bitta, birlashtirilgan jumлага bog‘langan ikki yoki undan ortiq jumlalarni birlashtirish uchun eng yaxshisidir. Murakkab jumlalar sizning yozishingiz tezligini oshiradi va tegishli fikrlarni birlashtiradi, lekin ular standart jumlalarga qaraganda bir necha qoidalarga ega. Ushbu tezkor qo‘llanmada biz yozishingizga ustunlik berish uchun ulardan qanday qilib to‘g‘ri foydalanishni tushuntiramiz. Qo‘shma gaplarni yaratishda ikkita tinish qoidasini yodda tutish kerak:

-Muvofiqlashtiruvchi bog‘lovchidan oldin vergul qo‘ying.

-Agar siz muvofiqlashtiruvchi birikmadan foydalanmasangiz, bandlar orasiga nuqta-vergul qo‘ying

Har doimgidek, ikkinchi mustaqil bandni boshlash uchun kichik harfdan foydalanasiz. Qo‘shma gaplar bir gap bo‘lgani uchun birinchi bandning faqat birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi. Ushbu tinish belgilari qoidalarini o‘zlashtirish



qo‘shma gaplar yaratish uchun juda muhimdir. Ularsiz sizning jumlangiz qo‘rinchli davomli jumlaga aylanadi.

Yozma matnda qo‘shma gaplar nafaqat grammatik jihatdan noto‘g‘ri, balki o‘quvchini tushunishi ham qiyin. Qo‘shma gaplardan va chalkash uzun qo‘shma gaplardan qochish uchun gapdagi bo‘laklar sonini ikki yoki uchta bilan cheklashga harakat qiling. Agar sizga uchtadan ortiq band kerak bo‘lsa, keraksiz so‘zlarni olib tashlash orqali ularni iloji boricha qisqa tuting. Esingizda bo‘lsin, qisqa jumlalarni tushunish osonroq va yozishingiz tezroq bo‘ladi.

Qo‘shma gaplarning mazmuni va tuzilishini oydinlashtirishda tinish belgilari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qo‘shma gaplar o‘z-o‘zidan to‘liq gap bo‘lgan ikki yoki undan ortiq mustaqil gaplarni bog‘lash orqali yasaladi. Qo‘shma gaplarda qo‘llaniladigan asosiy tinish belgilari:

Vergul: Ikki mustaqil gapni bog‘lovchi muvofiqlashtiruvchi bog‘lovchi (va, lekin, yoki, nor, uchun, shuning uchun, hali) oldidan vergul qo‘yiladi. Masalan: - Men do‘konga bordim va oziq-ovqat sotib oldim. - Kecha kechqurun u o‘qidi, lekin u hali ham imtihonda yaxshi natija bermadi.

Nuqtali vergul: nuqtali vergul ikkita chambarchas bog‘liq bo‘lgan mustaqil gaplarni muvofiqlashtiruvchi bog‘lovchisiz bog‘lash uchun ishlatilishi mumkin. U gaplar o‘rtasida verguldan ko‘ra kuchliroq bog‘lanish hosil qiladi. Masalan: - Ob-havo mukammal edi; biz parkda piknik qilishga qaror qildik. - u o‘z xatti-harakati uchun kechirim so‘radi; u uni kechirdi.

